



XORIJDA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNES KORXONALARI TASNIFI, ULARDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH HAMDA HISOBOTINI TUZISHNING XUSUSIYATLARI

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

doktoranti, i.f.n, dotsent

+99897 270-10-00

E-mail: emuydinov@list.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 37

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.975>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Kichik va o'rta biznes, tasniflash mezonlari, tadbirkorlik subyekti, soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi, hisobvaraqlar rejasi, hisob siyosati

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik va o'rta biznes korxonalarini xorijiy davlatlarda va O'zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning obyektini sifatida ko'rib chiqiladi, ularning hozirgi kundagi holati va rivojlanish yo'nalishlari bayon qilinadi.

Kirish: Zamonaviy buxgalteriya hisobi kichik va o'rta biznesni samarali yuritishning zaruriy omili hisoblanadi. Milliy yoki xalqaro standartlar asosida tashkil qilingan va to'g'ri yo'lga qo'yilgan buxgalteriya hisobi kompaniya moliyaviy hisobotlarini aniqligi va dolzarbligini ta'minlash uchun uning barcha moliyaviy muomalalarini hisobga olib borish va nazoratda tutish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi: Oxirgi yillarda butun dunyoda mamlakatlar iqtisodiyotini o'sishiga kichik va o'rta biznesning ta'siri kuchayib bormoqda. 2024 yilning aprel oyiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalarini soni 401,3 ming tani tashkil qildi [9].

Ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotida yuqori o'sish suratlari ta'minlash, uni pasayishini oldini olish maqsadida kichik va o'rta biznes korxonalariga turli imtiyoz va preferensiyalar taqdim qilmoqdalar. Ularga soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish, maqbul soliq tizimini tanlash, hisobotlarni milliy yoki xalqaro standartlar asosida tayyorlash borasida huquqiy asoslarni yaratib bermoqdalar.

Maqolada O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida ham o'zining salmoqli o'miga ega bo'lib borayotgan kichik va o'rta biznes korxonalarining xususiyatlarini ularda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga ta'siri o'rganib chiqildi va ularni takomillashtirish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Tadqiqod usullari: Maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqodning kuzatish, umumlashtirish, tizimlashtirish, to'plangan ma'lumotlarni qiyoslash va tahlil usullaridan foydalanish orqali o'rganilayotgan masalaga muallif tomonidan munosabat bildirildi.

Tadqiqod natijalari va ularning muhokamasi: Kichik va o'rta biznes atamasi to'g'risida dunyoda yagona tushuncha mavjud emas. Mazkur tushuncha xorijiy mamlakatlarda bir-biridan juda jiddiy farq qiladi. Har bir davlat uning mezonlarini avvalambor o'z iqtisodiyoti oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib belgilaydi.

Rus olimlari L. V. Koch va K. A. Kunevichlar Rossiya federatsiyasi va boshqa xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va uning mezonlarini tahlil qilib chiqdilar. Mualliflar bu holatda ularning ko'pida ikkita miqdoriy ko'rsatkich - band bo'lganlar soni va maksimal savdo hajmi qo'llanishini ko'rdilar [5].

D. V. Konishcheva o'zining ilmiy izlanishlarida korxonalarini kichik va o'rta biznes sohasiga mansubligini aniqlashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birlashtirgan kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Kichik biznes obyektini baholash uchun sifat ko'rsatkichlariga misollar sifatida kichik biznesning miqyosi, rahbar va xodimlar o'rtasida yagona boshqaruv aloqasining mavjudligi, bevosita rahbar tomonidan amalga oshiriladigan marketing faoliyati va boshqalarni keltirish mumkin. O'rta biznes uchun esa muallif biznes yuritishning hududiy miqyosga egaligi, boshqaruv tuzilmasida

to'rttagacha boshqaruv darajasi, innovasion, texnologik faoliyatda rahbarning yetakchiligi va boshqalarni ajratib ko'rsatadi [4].

Rossiya Federatsiyasida xodimlarning o'rtacha soni 15 kishi va yillik tushum qiymati 120 mln.rubl bo'lgan korxonalar mikro korxonalar; xodimlarning o'rtacha soni 16-100 kishi va yillik tushum qiymati 800 mln.rublgacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalar; xodimlarning o'rtacha soni 101-250 kishi va yillik tushum qiymati 2 mlrd.rubl bo'lgan korxonalar o'rta korxonalar sifatida tasniflanadi [8].

Yevropa ittifoqida kichik va o'rta korxonalar o'rtacha soni 2003 yili qabul qilingan va hozirga qadar xarakterda. Tadbirkorlik subyektini kichik va o'rta biznesga mansubligi mezonlari sifatida xodimlar soni, sotish xajmi va balans valyutasi tan olingan.

AQSHda kichik korxonalar jami korxonalar sonining 91,6 foizini, Fransiyada - 98,4 foizini, Yaponiyada esa 77 foizini tashkil etadi. AQSHda sanoat mahsulotlari hajmining 36,6 foizi, Fransiyada 38,8 foizi, Yaponiyada esa 35,4 foizi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi [6].

Xitoy Xalq Respublikasida kichik va o'rta korxonalar deganda Xitoy Xalq Respublikasida belgilangan tartibda tashkil yetilgan va ishchi kuchi va biznes jihatidan nisbatan kichik bo'lgan korxonalar, jumladan, o'rta korxonalar, kichik korxonalar va mikro korxonalar tushuniladi.

Qo'shma Shtatlarda kichik biznesni tasniflash mezonlari 1160 ta kichik sektorlar bo'yicha farq qiladi. Lekin ularning barchasida estiborga olinadigan mezon bu: xodimlar soni, yillik daromad xajmi va aktivlar qiymati hisoblanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 10.02.2023 yildagi PF-21-son Farmoni tadbirkorlik sub'yektlarini kichik, o'rta va yirik biznesga ajratish mezonlarini belgiladi.

Farmonning 1-a bandiga ko'ra

- yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT);
- mikrofirmalar - jismoniy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan, jami daromadi 1 kalendar yil davomida 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari;
- kichik korxonalar - jami daromadi 1 kalendar yil davomida 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan sub'yektlar hamda yuridik shaxslar tomonidan ta'sis etilgan mikrofirmalar kichik tadbirkorlik sub'yektlari bo'lib hisoblanadilar.

2022 yili Respublikamizda korxonalar va tashkilotlar tarkibida kichik biznesning ulushi 86% dan ortiqni va mamlakat YAIMni 51,8 foizni tashkil etgan [7].

Xalqaro audit amaliyoti to'g'risidagi nizom maqsadlari uchun kichik korxonalar deb yuritiladi, agar:

a) kompaniyaga egalik qilish va boshqaruvni amalga oshirish kam sonli shaxslar (ko'pincha bir kishi qo'lida) amalga oshiriladigan bo'lsa; va

b) unga quyidagi xususiyatlardan biri yoki bir nechtasini qo'llash mumkin bo'lsa:

(i) daromad olish manbalarining sonini cheklanganligi;

(ii) buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tizimini qo'llayotganligi; yoki

(iii) cheklangan doiradagi ichki nazoratni mavjudligi va korxonalar rahbariyatining bunday nazoratni chetlab xarakter qilishi mumkinligi.

O'rta biznes kompaniyalari kichik biznesga nisbatan avvalambor o'zlarining qamrov zonalarini bilan farq qiladi. Ular odatda katta mijozlar auditoriyasiga xizmat ko'rsatishga qodir bo'lgan butun tarmoqni o'z ichiga olishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ular o'z ishlarini bir shaharda olib borishlari shart emas.

O'rta biznes korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. O'zgaruvchan bozor sharoitlariga sekin moslashish.

2. Xizmatlar iste'molchilariga tovarlar yoki xizmatlar sifatini oshirishga e'tibor qaratish.

3. Jami daromadi 1 kalendar yil davomida 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan kompaniyalar.

O'rta kompaniyalarga ega bo'lgan tadbirkorlar kichik biznes egalari qaranganda ko'proq miqdorda pul ishlab topishadi. Ular allaqachon bozorda o'z o'rniga, brendiga va ma'lum miqdordagi sodiq xaridorlariga hamda faoliyatini kengaytirish borasida ko'proq imkoniyatlarga ega. Qoidaga ko'ra kamida 2-3 filialga ega bo'lgan tarmog'ni ifodalaydilar. O'rta biznes korxonasi egasi mustaqil tarzda filiallarni ochishi yoki franshizani ishlab chiqishi va sotishi mumkin.

O'rta biznes talabiga javob beruvchi korxonani birdaniga ochish yengil ish emas. Bunday korxonalarini barpo qilish uchun ham tashkiliy ham moliyaviy jihatdan jiddiy tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi. O'rta biznes korxonalarini boshqarish oson emas, bir kishi bu vazifani bajara olmaydi. Aksariyat xolatlarda mulk egasi boshqaruv va hisob yuritish vakolatlarini yollanma xodimlarga topshiradi. Bunday korxonalarda menejment samaradorligini oshirish uchun boshqaruv ning avtomatlashtirilgan tizimini joriy yaxshi natija beradi..

Faoliyat yo'nalishlariga kelsak, tadbirkorlikning o'rta biznes shakli tarmoq savdo kompaniyalari, qurilish tashkilotlari, yirik tibbiyot markaz-lariga xosdir. Jahon iqtisodiyotida davlatga barcha daromadlarning uchdan bir qismini olib keladigan eng katta rol o'ynaydigan o'rta tashkilotlardir. Biroq, xukumat tomonidan ularga nisbatan soliq imtiyozlari yoki boshqa qo'llab-quvvatlovchi choralarini kamdan kam xollarda qo'llaniladi.

Kichik biznes o'zining serqirra xususiyatlarining mavjudligiga ko'ra ularda buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni tashkil qilish va yuritishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy omillarga ega:

√ xo'jalik muomalalarining kamligi;

√ xodimlar sonining ko'p emasligi;

√ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va (yoki) ko'rsatilayotgan xizmatlar sonining kamligi;

√ xujjatlar aylanishi grafigining soddaligi va kamchiqimligi;

√ buxgalteriya hisobi va ishchi hisobvaraqlar rejasining soddalashtirilgan usulidan foydalanishi mumkinligi;

Muallifni amaliyotchi auditor sifatida kichik hamda o'rta biznes korxonalariga professional xizmatlar ko'rsatish jarayonida ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, hamda samarali ichki nazoratni yo'lga qo'yish borasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

- ko'p hollarda korxonada buxgalteriya bo'limi tashkil qilinmay buxgalteriya hisobini bu borada maxsus bilimlarga ega bo'lmagan mulk egasi tomonidan yuritilishi yoki,

- buxgalteriya tashkil qilinsada unga malakali mutaxassis yollash o'rniga arzon hisob xodimini jalb qilish amaliyotini keng tarqalganligi;

- kichik korxonalar bosh hisobchisi faoliyatida xizmat vazifalariga to'g'ri kelmaydigan ishlar (kadrlar xujjatlarini yuritish, huquqiy masalalar bilan shug'ullanish, loyihalar tayyorlash...) ni bajarib borishi;

- mulk egalari buxgalteriya hisobi faqat soliqlarni to'g'ri hisoblash va tegishli idoralarga hisobotlar tayyorlash hamda taqdim qilish uchun zarur degan nuqtai nazar ustivorligi.

- kichik biznes uchun sodda va nisbatan qiymati yuqori bo'lmagan qulay kompyuter dasturlarni mavjudligiga qaramay unga mablag' ajratishga istakning yo'qligi;

- korxonalar rahbari tomonidan bank xujjatlaridan tashqari boshqa xo'jalik muomalalarini xujjatlashtirishga ikkinchi darajali deb qarashning mavjudligi va ularni yoppasiga hisobga olishga yetarli e'tibor berilmasligi;

- hisob siyosatini muhimligiga yetarli e'tibor berilmasligi;

- buxgalteriya hisobidan kichik korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, uning faoliyati samaradorligini baholash, kreditorlar oldidagi majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va debitorlik qarzlarni undirish muddatlarini nazorat qilish imkoniyatidan to'liq foydalanmaslik vvk.

Kichik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy xususiyati kichik korxonalar uchun buxgalteriya hisobi va hisobot berishning soddalashtirilgan algoritmilaridan foydalanish imkoniyatidir, ya'ni buxgalteriya hisobini tashkil etishda nosta'ndart yondashuvni qo'llanishi mumkinligi hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish bir qator me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining 9-moddasida kichik tadbirkorlik sub'yektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi deb qayd etilgan.

Kichik korxonalar o'rta va yirik korxonalar kabi umumiy tartibda buxgalteriya hisobini yuritishlari mumkin.

Ammo buni osonlashtirish uchun qonunda ularga soddalashtirilgan tizim yordamida buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyati berilgan [3].

Kichik biznes korxonalar tomonidan buxgalteriya hisobini umumiy tartibda yoki soddalashtirilgan tartibda yuritishni tanlashiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- korxonaning ichki imkoniyatlarini mavjudlik darajasi;

- boshqaruv qarorlarini asoslash, ularni tayyorlash va qabul qilish uchun tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida sifatli, to'liq, ishonchli va o'z vaqtida ma'lumot olish zarurati;

- kichik biznes sub'yektini unga raqobatchi bo'lgan kompaniyalar orasidagi o'rnini aniqlash muhimligi;

- korxonadan haqi mavjud bo'lgan kontragenlar hisobini yuritishning ahamiyatli tarzda lozimligi.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini qo'llashda kichik xo'jalik yurituvchi sub'yektga buxgalteriya hisobining qo'llanilayotgan registrlarini o'z faoliyati xususiyatlariga muvofiq qo'llash olishiga ruxsat beriladi. Lekin bunda u quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

- buxgalteriya hisobining yagona metodologiyasiga, ikki yoklama yozuv tamoyiliga;

- analitik hisob bilan sintetik hisob ma'lumotlarining o'zaro bog'langanligiga;

- barcha xo'jalik muomilalarini hisob registrlarida yoppasiga aks ettirilishiga;

- hisobning boshlangich xujjatlariga asoslanib yuritilishiga;

- boshlangich xujjatlar ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ko'rsatkichlar bo'yicha yig'ib borilishiga va tartiblashtirilishiga.

Kichik korxonalarda buxgalteriya hisobining yuritilishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- barcha xo'jalik muomilalarini tegishli boshlangich xujjatlar tuzish orqali yoppasiga xujjatlashtirish;

- boshlangich xujjatlardagi ma'lumotlarni hisob registrlariga kiritish;

- moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini yuritishning tavsiya etilgan soddalashtirilgan usulining eng katta kamchiligi yuqorida aytib o'tganimizdek uni hisobni yuritishni standart kompyuterlashtirilgan tizimiga moslashtirilmaganligida hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritish uchun murakkab dasturiy mahsulotlardan foydalanish kichik biznes uchun oqilona yechim hisoblanmaydi. Chunki, aksariyat holda, bunday korxonalar mazkur dasturiy ta'minotni sotib olish uchun zarur resurslarga ega emas. Bundan tashqari ular ko'p

bosqichli buxgalteriya hisobini qo'llashga qiziqmaydilar ham va unga hojat ham yo'q. Chunki, qonunda belgilab qo'yilganidek xususiy tadbirkor o'ziga qarashli korxonada buxgalteriya hisobini o'zi yuritishi mumkin. Shuning uchun amalda, ko'plab tadbirkorlar buxgalteriya hisobini o'zlariga mustaqil ravishda amalga oshiradilar va kamdan-kam hollarda yuqori malakali mustaqil buxgalter xizmatlariga murojaat qilishadi. Ushbu turdagi kichik biznes tashkilotlari uchun IC-Tadbirkor, IS-Firmani boshqarish, IS-Savdo va IS- Soddalashtirilgan kabi bir nechta samarali yechimlari ishlab chiqilgan. Masalan, IC-Tadbirkor dasturiy ta'minotida dasturni ishlab chiqqan kompaniya ikkita rejimni taqdim etgan: buxgalteriya hisobi va boshqaruv. Ularning interfeyslari foydalanuvchi ishlayotganda juda qulay bo'ladigan tarzda tuzilgan. Buxgalteriya hisobi rejimida tashkilotning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish funksiyalari ko'rinadi, boshqaruv rejimi esa faqat biznes jarayonlarini boshqarish uchun mo'ljallangan.

Kichik biznes uchun IC-Tadbirkor dasturiy ta'minotda quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashish (savdo-sotiq hujjatlari, shartnomalar, pudratchilar, xamkorlar va tovarlar bo'yicha hisobotlar, narxlar);
- masofadan turib korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi hisob raqamlar orqali hisob-kitob muomalalarini amalga oshirish;
- kassa va ish haqi muomalalari hisobini yuritish;
- davlat tomonidan belgilangan hisobotlarni shakllantirish;
- soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va ularni elektron tarzda

tegishli idoralarga jo'natish.

Dasturga yana bir nechta xizmatlar kiritilgan:

- tafsilotlarni avtomatik ravishda to'ldirish, shartnoma taraflarini tekshirish;
- bank tashkilotlari, valyuta kurslari ma'lumotlar bazasini yuklash;
- soliq xavfini baholash;
- eng maqbul soliq variantini tanlashga yordam beradigan xizmatlar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi odamlar faoliyatining barcha turlariga, shu jumladan buxgalteriya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobi fan va faoliyat yo'nalishi sifatida so'nggi o'n yilliklarda ma'lumotlarni uzatish va saqlash texnologiyasidagi yangiliklar bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ma'lumot to'plash jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi, uni saqlash, qayta ishlash tezligi va hajmini hamda axborot sifati sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Maxsus dasturlar orqali ofisdan bank hisob raqamini boshqarish, masofada turib shartnoma tuzish, ishonchnoma jo'natish, shet-fakturani tasdiqlash, solishtirma dalolatnomalar tuzish kabi qulayliklar hozir hych bir kichik yoki o'rta korxonada rahbari yoki buxgalterini ajablantirmaydi. Yaqin o'tmishda bular rahbarlar va hisob xodimlari uchun orzu edi.

Xulosa

Mahalliy va xorijiy tajribani o'rganish shuni, kichik va o'rta biznes korxonalarida zamon va qonun talablariga mos keladigan buxgalteriya hisobini, samarali ichki nazoratni tashkil qilish va uni yuritishni takomillashtirish hamda sifatli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asosli moliyaviy hisobotlarni olishga erishish bir qator tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Birinchidan, rivojlanishning xozirgi bosqichida mahalliy kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish masalalarida mustaqillikka erishgan bo'lganlariga qaramay, ular soddalashtirilgan buxgalteriya tizimini yuritishda amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan umumiy tamoyillar doirasida bir qator qoidalarga amal qilishlari kerak. Buxgalteriya xizmatini yuqori saviyada ishlashi uchun zarur bo'lgan shartlardan biri mazkur kichik biznes

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2.02.2023 yil sanasidagi PF-21-son Farmoni
2. Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Prezidentining 2023 yil 15 noyabrda PQ-366-sonli qarori

xususiyatlarini hisobga olgan **hisob siyosatiga ega bo'lishlik** hisoblanadi. Kichik korxonalar ikkita alohida - buxgalteriya hisobi va soliq hisobi uchun- hisob siyosatini yaratishi ham mumkin.

Bunda kichik biznes korxonasi hisob xodimi quyidagi qoidalarni bilishi lozim. Jumladan, hisob siyosatini o'zgartirish uslubiyoti izchillik faraziga asoslanadi: hisob siyosati bir hisobot davridan ikkinchisiga izchil qo'llanilishi kerak. Ikkinchi asosiy qoida - bu hisobot davri oralig'ining natijasidir, shuning uchun hisob siyosatidagi barcha o'zgarishlar faqat yangi hisobot davrining boshidan boshlab amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, tegishli, malakali va ob'yektiv shakllangan hisob siyosati kichik korxonalar uchun buxgalteriya hisobi samaradorligining eng muhim jihati hisoblanadi.

Ikkinchidan, har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yektning buxgalteriya siyosatining asosiy elementi, bu- buxgalteriya hisobi va hisobotning to'liqligi, o'z vaqtida va ishonchligiga qo'yiladigan talablari asosida ishlab chiqilgan sintetik va analitik hisoblarni o'z ichiga olgan ishchi hisobvaraqlar rejasidir. Bugungi kunda kichik biznes korxonalarida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olish uchun mulkchilik shakli, tarmog'i va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun mo'ljallangan va ikki yoqlama yozuv usuli bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan Namunaviy hisobvaraqlar rejai va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalardan foydalanadilar. Bu o'rta biznes korxonalarida uchun qiyinchilik tug'dirmasada, kichik korxonalarda mazkur korxonalar faoliyati ning hususiyatlari va unda qo'llanilayotgan soliq tizimini hisobga olgan holda soddalashtirilgan ishchi hisobvaraqlar rejasini tuzib chiqish ko'proq foydali bo'ladi.

Uchinchidan, «Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» nomli Buxgalteriya hisobining 20-sonli milliy standartini tubdan yangilash lozim. Chunki, mazkur standartda aks ettirilgan xujjat shakllari allaqachon eskirgan va amaliyotda qo'llanilmayapti. Hozirda kichik biznes korxonalarida uchun ishlab chiqilgan buxgalteriya dasturlarida tarmoqqa moslashtirilishi mumkin bo'lgan va kompaniyaning ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan bir qator xujjatlar ishlab chiqilgan.

To'rtinchidan, kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini aniq yuritilishi, soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va moliyaviy hisobotlarni asosli tuzilishini ta'minlash uchun xukumatning kichik biznesni qo'llab quvvatlash maqsadida ishlab chiqayotgan me'yoriy xujjatlarida buxgalteriya hisobini yuritish uchun sotib olinayotgan zamonaviy, akkreditatsiyadan o'tgan dasturlarni qiymatini to'liq yoki qisman qoplab berish choralarini nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi

Beshinchidan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi qonunining "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" deb nomlangan 25-moddasiga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi. Lekin, bu borada shuni aytish lozimki, bu ikkala hisobot shakli yirik kompaniyalar tomonidan rasmiylashtiriladigan hisobot shakllari hisoblanadi. Farqi shundan iboratki, kichik korxonalar 010 dan boshlanib 940 da tugaydigan balans satrlarini oz sonli qismini to'ldiradilar. Xalqaro amaliyotda, va ayniqsa Kichik biznes uchun ishlab chiqilgan Moliyaviy hisobotning halqaro standartlarida kichik biznes korxonalarida uchun hisobot shakllarining soddalashtirilgan usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqodchi tomonidan dissertatsiya ishida bu borada jahon tajribasini o'rgangan holda faoliyatida MHMS ni qo'llayotgan mahalliy kichik biznes korxonalar uchun mazkur hisobotlarning soddalashtirilgan shaklini ishlab chiqish va tavsiya etish rejalashtirilgan.

3. «Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» nomli Buxgalteriya hisobining 20-sonli milliy standarti
4. *Koniuyeva D. V. Kriterii opredeleniya razmerov malogo i srednego biznesa v Rossii i za rubejom // Molodoy uchenyy. 2018. № 9 (195). S. 83—86*
5. *Kox L. V., Kunevich K. A. Kriterii omeneniya predpriyatiy k kategorii malbx // Vestnik ZabGU. 2017. № 3*

6. Малы и sredniy biznes kak faktor ekonomicheskogo rosta Rossii / In-t ekon. politiki im. Ye.T. Gaydara. – M. : Izd-vo Instituta Gaydara, 2019. – 308 s. : il. – (Nauchnyye trudy / Institut ekonomicheskoy politiki imeni

7. Ye.T. Gaydara; № 178P)

8. Mirzayev Q.J., B.Sh.Mirzayev “Kichik biznesni boshqarish” Ma’ruzalar matni, Toshkent, 2019 y

9. Pletnev D.A i dr. Kriterii maloga srednego biznesa v raznykh stranax i yego masshtaby: sravnitelnoye issledovaniye. Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, 2021, № 6 (452), Ekonomicheskiye nauki, Выр. 73, s 147-161

10. https://ec.europa.eu/growth/smes/sme-definition_en

11. <https://uz.kursiv.media/2024-04-27/kolichestvo-malyh-predpriyatij-v-uzbekistane-snizilos-do-4013-tys>